XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr VI-83-122-10-0-K/23 Toshkent viloyati hokimiligi

Toshkent viloyati shahar ichi yo‘lovchilar transportida yo‘lovchilar tashish haqqini to‘lash tarifini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustdagi ”Shahar yo‘lovchilar transportida bepul foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida” 1997-yil 25-apreldagi ”Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi 278-I-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi “Avtomobil transporti to‘g‘risida” 674-I-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-yanvardagi “Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2724-sonli qarori qabul qilingan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo‘lovchilar va yuk tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta’minlashga doir talablarni tasdiqlash haqida”gi 482-sonli hamda 2012-yil 17-sentabrda “Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 273-sonli qarorlari ijrosi yuzasidan shahar yo‘lovchilar tashish xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqib viloyat Transport boshqarmasining 2023-yil 10-maydagi 1465-sonli murojaat xatini inobatga olib, yo‘lovchi tashish xizmatlari uchun narx (tarif)ni shakllantirish, shahar yo‘nalishida qatnaydigan yo‘lovchi tashish transporti xizmatlari xarajatlarining, jumladan, yoqilg‘i-moylash materiallari, ehtiyot qismlarning qimmatlashganligi munosabati

bilan, transport xizmatining barqaror ishlashini ta’minlash va korxonalarning moliyaviy jihatdan zarar ko‘rib ishlashini oldini olish, yo‘lovchi tashish transporti xizmatlariga tariflarni asosli shakllantirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuning 6 va 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Viloyat transport boshqarmasi boshlig‘i M.Suyunusovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent viloyati shaharlarida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi barcha korxona va tashkilotlarga qarashli yo‘nalishlardagi yo‘lovchilar tashish xizmatlarining cheklangan tariflari quyidagicha belgilansin:

a) avtobuslarda bir nafar yo‘lovchi uchun 1500 (bir ming besh yuz) so‘m;

b) yo‘nalishli taksi (mikroavtobus)larda bir nafar yo‘lovchi uchun 2000 (ikki ming) so‘m;

2. Viloyat Transport boshqarmasi (Muhiddin Suyunov), Chirchiq (Davron Xidoyatov), Olmaliq (Qobil Xamdamov) va Angren (Alisher Raimov) shahar hokimliklari ushbu qaror talablaridan kelib chiqqan holda yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar va korxonalarga ushbu tariflarni joriy qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Viloyat Transport boshqarmasi (Muhiddin Suyunov) shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda viloyatda transport tizimini, xususan, aholiga sifatli transport xizmatlari ko‘ratilishini yanada yaxshilash maqsadida olib borilayotgan ishlar, mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yuzasidan aniq takliflar va ma’lumotlarni viloyat hokimligiga kiritib borilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan, Toshkent viloyati hokimining 2019-yil 3-oktabrdagi 729-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Viloyat hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Behzod Qabulov) mazkur qarorni “Toshkent haqiqati” va “Tashkentskaya pravda” gazetalarida e’lon qilinishini hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

6. Markaziy bank Toshkent viloyati bosh boshqarmasi boshlig‘i (A.Nizamov):

Toshkent viloyati shahar ichi yo‘lovchilar transportida yo‘lovchilar tashish haqqini to‘lash tarifi yangilanayotganligi munosabati bilan yo‘lovchi tashish xizmati ko‘rsatish korxonalarini 500 so‘mlik qiymatdagi pul bilan ta’minlashda hamkorlik qilish choralarini ko‘rish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Axmadali Xudayberganov hamda viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Shukrulla Maxmudov zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Toshkent viloyati hokimi **Z.Mirzayev**